



## IKKINCHI JAHON URUSHIDA O'ZBEK JANGCHILARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI.

**Bahronova Nigina Voxid qizi.**

*O'zMU Tarix 1-kurs magistranti.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek jangchilarining urush frontlaridagi faoliyati, urush frontlarida ko'rsatgan jasoratlari haqida ma'lumot beradi.*

**Kalit so'zlar:** *Qizil armiya, fashizm, Sovet Ittifoqi, Brest qal'asi, "Shuhrat" ordeni, razvetkachi, evakuatsiya, "Qizil bayroq" ordeni, minyor*

Ortda qolgan XX asrda insoniyat ikkita jahon urushini boshidan kechirdi. Urush millionlab begunoh kishilarning qoniga zomin bo'ldi va moddiy va ma'naviy jihatdan jahon sivilizatsiyasiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, german fashizmining aybi bilan boshlangan ikkinchi jahon urushi 6 yil - u 3 oy davom etib, deyarli yer yuzining barcha mintaqalarini qamrab oldi. Dunyoning progressiv, taraqqiyparvar kuchlari fashizmga qarshi kurashda o'zaro ittifoqqa kelib, ezgulik, jaholat va zulm, zo'ravonlik ustidan g'alabaga erishdi. Shunday bo'lsada, ikkinchi jahon urushi millionlab begunoh odamlarning bevaqt o'limiga, mislsiz yo'qotishlar va talafotlarga sababchi bo'lgan dunyodagi eng dahshatli, qonli qirg'inlardan biri sifatida insoniyat tarixida muhrlanib qoldi.

Ko'pmillatli O'zbekiston xalqi ham haqiqiy jasorat va fidoyilik ko'rsatib, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga ulkan hissa qo'shdi. Xususan, 2 millionga yaqin yurtdoshimiz janglarda ishtirok etib, ularning 500 mingdan ortig'i qahramonlarcha halok bo'ldi.<sup>45</sup> O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov ikkinchi jahon urushi haqida gapirar ekanlar: "Urush yillari - O'zbekiston tarixining uzviy bir qismidir. Biz tariximizdan biror sahifani ham olib tashlamaymiz. Bu tarix - bizniki, uni unutishga hech kimning haqqi yo'q", - degan edilar.<sup>46</sup>

1941-1945- yillarda urushning barcha jabhalarida o'zbekistonlik jangchilar qahramonlik va mardlik mo'jizalarini ko'rsatdilar. Fashistlar Germaniyasi sovetlar Ittifoqi hududida urush harakatlari boshlaganidan bir necha kun o'tar-o'tmas o'zbekistonlik mard o'g'lonlarning afsonaviy Brest qal'asini himoya qilishdagi jasoratlaridan guvohlik beruvchi xat - xabarlar birin-ketin yetib kela boshladi. Brest qal'asini himoya qilishda jasorat ko'rsatganlar orasida O'zbekistondan N.Sodiqov, A.Abdullayev, A.Arslonbekov, S.Boytemirov, A.Aliyev, T.Xidirov, U.O'tayev va boshqalar bor edi. Mo'min Karimov va Ismoil Adhamxo'jayev SSSR g'arbiy chegaralarida

<sup>45</sup> <https://www.president.uz/oz/lists/view/374>

<sup>46</sup> Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T.: O'zbekiston, 1996. - B.246-247.



birinchilar qatorida dushman bilan jangga kirdilar. Mo'min Karimov keyinchalik uch marta Shuhrat ordeni nishondori bo'ldi.<sup>47</sup>

Urush boshlanganda 16 yashar Zeboxon Moskva teatr san'ati instituti talabasi edi. Yaqinlashib kelayotgan dahshatli voqealar tufayli institut Sharqqa evakuatsiya qilinishi lozim edi. Lekin ko'pgina studentlar qo'llariga qurol olib dushmanga qarshi kurashish istagini bildirdilar. Ularning orasida Zebo G'aniyeva ham bor edi. O'zbek qizi frontda o'zini haqiqiy askar sifatida ko'rsatdi. U o'z hayotini bir necha bor xavf ostida qoldirib razvedkachilar safida 12 marta «til» (dushmanning rejalari - planini bilib olish maqsadida tirik asir tutib kelish) operatsiyasida ishtirok etib, shuhrat qozondi. Zebo G'aniyeva jang maydonlarida 28 fashist jallodni yer tishlatdi. "Qizil bayroq" ordeni bilan mukofotlandi.<sup>48</sup>

Barcha sovet jangchilari "Bir qadam ham orqara chekinilmasin!" degan shior ostida mardonavor kurash olib bordilar. Ular dushmanning yuzlab hujumini qaytardilar. Shaharning o'zida har bir ko'cha, har bir uy uchun qattiq janglar bo'ldi. Nemis-fashist qo'shinlarining hujumini to'xtatibgina qolmay, balki Qizil Armiyaning 1942 yilning oxirida boshlangan qarshi hujumiga ham sharoit yaratilgan edi. Sovet qo'shinlarining shitob bilan boshlangan hujumi gitlerchilarning 330 mingli qo'shilmalarini qurshovga olish imkonini berdi. Saflarida ko'plab o'zbekistonlik jangchilar bo'lgan 333-o'qchi diviziya qamqlal qilingan dushman qismlarini tugatishda misli ko'rilmagan qahramonlik ko'rsatdi.<sup>49</sup> Chunonchi, minyor Maxmud Abdullayev janglarda mardlik ko'rsatdi. Abdullayev Kosonogov va Podskalniy xutorlari rayonida dushmanning kuchli minomyot-artilleriya o'ti ostida maydonni minalardan tozalab, bo'linmalarimizning hujumga o'tishi uchun yo'l ochib berdi. Stalingrad ostonalarida bo'lgan hamma janglarda qizil askar M. Abdullayev dovyuraklik va mardlik namunasini ko'rsatdi.

O'zbekistonlik mard jangchilar Ukraina va Belorussiya, Kavkaz va Boltiq bo'yi yerlarini dushmandan ozod qilishda, qamalda qolgan Leningradni himoya qilish, xullas SSSRni dushmandan tozalash, qardosh Yevropa xalqlariga yordam qo'lini cho'zishda hamda gitlerchilar fashizimni o'z uyasida tor-mor keltirishda qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar. O'zbek xalqi fashist gazandalardan Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Albaniya hamda Germaniya xalqlarini ozod qilishda qatnashib, o'zining baynalmilalchilik burchini

ado etgan, asl farzandlari bilan haqli sur'atda faxrlanadi. Bular orasida qizil armiya generallari, Sovet Ittifoqi Qahramonlari Sobir Rahimov, Mullajon Uzoqov va Fayzulla Norxo'jayevlar alohida diqqatga, e'tiborga loyiqdirlar. Yaponiya imperializmiga qarshi olib borilgan janglarda ham qo'shinlarimiz qahramonlik

<sup>47</sup> Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi 3-kitob. – T.: Sharq, 2010. – B.356-357.

<sup>48</sup> Jo'rayev T. O'zbekiston jangchilari Ulug' Vatan urushi frontlarida. – T.: Fan, 1975. – B.14.

<sup>49</sup> Shamsutdinov R. Vatan sharafi uchun 1944-yil 16-yanvar. N -3(193). To'plam: Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalari, II kitob. – T.: Akademnashr, 2017. – B.26.



namunalarini ko'rsatdilar. Jami bo'lib o'zbek jangchilaridan 6770 kishi Yaponiya militarizmiga qarshi kurashda SSSRning ordeni va medallari bilan taqdirlandi.<sup>50</sup>

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, urush har qanday zamonlarda ham insoniyat boshiga tushgan og'ir davr hisoblanadi: minglab qurbonlar beriladi, insonlar o'z yaqinlaridan ajraladilar va urush bo'lgan hududlardagi barcha joylar vayron bo'ladi. Shu paytgacha bo'lib o'tgan urushlar orasida ikkinchi jahon urushi insoniyat boshiga eng ko'p ko'rguliklar solgan urush hisoblanadi. Xususan, frontga safarbar qilingan 1 million 433.230 o'zbekistonlik jangchidan 263.005 kishi halok bo'ldi, 132,670 kishi bedarak yo'qoldi va 60452 kishi o'z o'lkasiga nogiron bo'lib qaytdi.<sup>51</sup> Bu hisobga urush yillarida ochlik - yalong'ochlikdan qirilib ketgan ming-minglab vatandoshlar ham qo'shiladigan bo'lsa, xalqimizning boshiga tushgan dahshat va fojining nechog'lik og'ir bo'lganligini ko'z oldimizga keltira olamiz. Shunday bo'lsada, o'zbekistonlik jangchilar frontda jasorat va qahramonlik namunalarini ko'rsatdilarki, bu hozirgi zamon yoshlari uchun ham ibratdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: O'zbekiston, 1996. – B.246-247
2. Jo'rayev T. O'zbekiston jangchilari Ulug' Vatan urushi frontlarida. – T.: Fan, 1975. – B.14.
3. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi 3-kitob. – T.: Sharq, 2010. – B.356-357.
4. Shamsutdinov R. Vatan sharafi uchun 1944-yil 16-yanvar. N -3(193). To'plam: Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalari, II kitob. – T.: Akademya nashri, 2017. – B.26.
5. <https://www.president.uz/oz/lists/view/374>

<sup>50</sup> Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi 3-kitob. – T.: Sharq, 2010. – B.357.

<sup>51</sup> Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: O'zbekiston. 1996. T.3. – B. 80.